

## TURKIYANING YEVROPA ITTIFOQIGA INTEGRATSIYASI VA INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI DEMOKRATIK ISLOHOTLAR

*Ilmiy raxbar: Xodjimuratova D.S Dsc., dotsent*

*2- kurs magistrati: Abduraximova Vaziraxon Qaxramon qizi*

Turkiya ko‘plab xorijiy kuzatuvchilar uchun hayratlanarli bir manzara kasb etadi. Uning hayratlanarli jihatlaridan biri siyosiy tizimidir; u bir tomondan avtoritar davlat emas, ikkinchi tomondan esa uni to‘liq shakllangan demokratiya deb atash ham haqiqatdan yiroqdir. Yana bir murakkab jihat uning o‘zligidir, u Yaqin Sharq davlati ham emas, lekin uni to‘laqonli Yevropa davlatlari qatoriga ham qo‘shib bo‘lmaydi. Ushbu ikki omil – Turkiyaning siyosiy tizimi va uning o‘zligi – uning Yevropa davlatlari tizimi bilan, xususan, Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarini murakkablashtiradi.

A‘zolikka intilayotgan mamlakatlarda Yevropa ittifoqi demokratiyani rag‘batlantiruvchi qudratli sub‘ekt sifatida harakat qilishi keng e‘tirof etilgan dalildir. Yevropa Ittifoqi o‘zining assotsiatsiyalangan a‘zolariga nisbatan demokratlashtirishni rag‘batlantiruvchi moliyaviy yordam paketlari va a‘zolik va‘dasi kabi turli vositalar hamda ta‘sir richaglariga ega. Aynan mana shu kontekstda YI Turkiya siyosatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Uzoq davom etgan assotsiatsiya yo‘li Yevropa Ittifoqiga Turkiyada demokratlashtirish jarayonini olg‘a surish imkonini berdi va bu siyosiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishda qo‘llanilgan mexanizmlardan biri bo‘ldi.

Ikkinchi mexanizm – bu to‘laqonli a‘zolik mukofotidir. Turkiyaning YI bilan munosabatlarida siyosiy omillar ahamiyatining yana bir jihati “Yevropalik” tushunchasi bilan bog‘liq. Yevropa Ittifoqi nima “Yevropacha” ekanligini belgilashda rad etib bo‘lmaydigan mavqega ega. Turkiyaning Yevropadagi kelajagi qiyin kechadi; bunga qisman yangi Yevropa o‘zligining qayta kashf etilayotgani va bu o‘zlikka Turkiyaning kirishi borgan sari qiyinlashib borayotgani sabab bo‘lmoqda.

Agar Yevropa liberal demokratiya tushunchalari asosida qayta belgilansa, u holda Turkiyaning tizimdan chiqarib tashlanishi yoki uning siyosiy tizimini islooh qilish sharti bilan “shartli ravishda” qabul qilinishi haqida bahslashish mumkin. Yevropaliklikning ushbu demokratik ta‘rifida Turkiya muayyan to‘siqlarga duch keladi, chunki uning demokratiyasi Yevropa standartlariga mos deb qabul qilinmaydi, biroq bu yondashuvda Turkiya uchun harakat qilish va o‘zgarishlar kiritish uchun ko‘proq imkoniyat mavjud.

1980–1988-yillar oralig‘ida Yevropa Ittifoqi o‘zining turli tashkilotlari – Komissiya va Parlament orqali Turkiyada demokratlashtirish jarayonini olg‘a surishga harakat qildi; shu maqsadda u Assotsiatsiyani muzlatib qo‘yish va moliyaviy yordamni to‘xtatish kabi jazolash choralardan foydalandi. Shu nuqtayi nazardan, Hamjamiyat

demokratlashtirishni rag‘batlantirish uchun Turkiya bilan mavjud aloqalaridan foydalandi. Assotsiatsiya shartnomasi orqali YI 1980-yillarda Turkiyadagi demokratlashtirish jarayoniga o‘z ta‘sirini o‘tkaza oldi. Masalan, demokratiyaga qaytish jadvali tayyorlanganda, turk rasmiylari o‘zlarining demokratiyaga sodiqligini namoyish etish uchun uni Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati YIHAM (YEH)<sup>1</sup> rasmiylariga taqdim etdilar. Yevropa Parlamenti Turkiya siyosatiga doir ko‘plab rezolyutsiyalari orqali Turkiya va YI munosabatlarida muhim ishtirokchiga aylandi. Masalan, 1996-yil 19-sentyabrda Parlament Turkiya bo‘yicha rezolyutsiya qabul qilib, unda shunday deyilgan edi: “Turkiya hukumati tomonidan berilgan majburiyatlarga qaramay, Turkiyada inson huquqlari bilan bog‘liq vaziyat sezilarli darajada yomonlashdi va demokratlashtirish borasida hech qanday sezilarli yutuqlarga erishilmadi”.<sup>2</sup> Shunga asosan, YIHAM Turkiyaga demokratiyani rag‘batlantirish uchun ishlatiladigan mablag‘lardan tashqari barcha moliyaviy yordamlarni muzlatishga qaror qildi. 1993-yilgi Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma Maastrixt shartnomasi bilan o‘z vakolatlari kengaygan Yevropa Parlamenti Turkiyaning YI bilan bog‘liq kelajakdagi intilishlari uchun hal qiluvchi omilga aylandi.

Yevropa Parlamenti Karlos Kamero Gonsalesni ma‘ruzachi etib tayinladi va uning hisoboti 1995-yil 13-dekabrda YIHAM tomonidan qabul qilingan qarorga asos bo‘ldi.<sup>3</sup> Hisobotda islohotlar o‘tkazilishi zarur bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar: 1982-yilgi Konstitutsiya, inson huquqlarini yaxshilash va kurd masalasini siyosiy yo‘l bilan hal qilish kabi masalalar ko‘rsatib o‘tildi. Hisobotning asosiy xulosasi shundan iborat ediki, Turkiya demokratiyasi Yevropa Parlamentining avvalgi – 1985-yildagi Balf va 1988-yildagi Verner hisobotlaridagi xulosalarni takrorlagan holda, Yevropa standartlaridan hali ancha yiroqdir.<sup>4</sup>

Ushbu tavsiyalarga muvofiq, 1995-yil yozida Turkiya hukumati 1982-yilgi Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritdi. Asosiy o‘zgarishlar quyidagilardan iborat edi: kasaba uyushmalari kabi birlashmalarga siyosiy faoliyatda ishtirok etishga ruxsat berildi, saylov yoshi 18 yosh qilib belgilandi, siyosiy partiyalarning faoliyati takomillashtirildi va universitet xodimlariga siyosiy partiyalarga a‘zo bo‘lish imkoniyati berildi. Ushbu o‘zgarishlar 1982-yilgi Konstitutsiya tomonidan so‘z va birlashish erkinligiga qo‘yilgan cheklovlarni yumshatishga qaratilgan edi. Shuni

<sup>1</sup> Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEH; turkcha: Avrupa Ekonomik Topluluğu – AET) – 1957-yilda Rim shartnomasi bilan tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1993-yilda Maastrixt shartnomasiga muvofiq, u Yevropa Ittifoqi (YI) tarkibiga kirdi va uning asosi bo‘lib xizmat qildi. Turkiya va YIHAM o‘rtasidagi munosabatlar 1963-yildagi Assotsiatsiya shartnomasi (Anqara kelishuvi) asosida shakllangan bo‘lib, 1980-yillardagi demokratlashtirish jarayonida ushbu tashkilot Turkiya hukumati nisbatan asosiy nazorat qiluvchi va yo‘naltiruvchi tashqi kuch vazifasini bajargan.

<sup>2</sup> European Parliament Resolution, Bulletin of the European Union, 9/1996, pt. 1.4.43.

<sup>3</sup> European Parliament, Report by Carnero Gonzales for the Committee on Foreign Affairs, Security and Defense Policy on the fact-finding mission to Turkey, 13-16 September 1995, Doc Pe. 214.242.

<sup>4</sup> Ushbu ikki hisobot Yevropa Parlamenti a‘zolari tomonidan 1985 va 1988-yillarda yozilgan. Ularda Turkiya siyosiy tizimi Yevropa demokratiyalariga yanada muvofiq holga kelishi zarurligi tavsiya etilgan edi.

alohida qayd etish joizki, 1995-yilgi Konstitutsiyaviy o'zgartirishlar Yevropa Parlamentida Bojxona ittifoqi shartnomasi bo'yicha ovoz berishdan aynan bir oz oldin qabul qilindi.

1990-yillarda, ayniqsa 1996-yilda Bojxona ittifoqi amalga oshirilgandan so'ng, Turkiya jamoatchiligida shunday bir qarash shakllandi: Yevropa Ittifoqi Turkiyani to'laqonli a'zolikka qabul qiladi va demokratlashtirish jarayoniga yordam beradi.<sup>5</sup>

Yevropa Kengashi 1993-yildagi Kopengagen sammitida nomzod mamlakatlarning Yevropa Ittifoqiga a'ziligini baholash uchun quyidagi mezonlarni qabul qildi: 1. Siyosiy shartlar: ya'ni demokratiyaning holati va inson huquqlariga hurmat ko'rsatilishi; 2. Iqtisodiy shartlar: ya'ni makroiqtisodiy barqarorlik va (YI ichidagi) raqobatbardoshlik bosimiga bardosh bera olish qobiliyati; 3. Hamjamiyat qonunchiligini qabul qilish qobiliyati: ya'ni Hamjamiyatning barcha huquqiy normalari va qonunlar majmuasini o'zlashtirish.

Kopengagen Yevropa Kengashi shuni ta'kidladiki, "a'zolik nomzod mamlakatdan demokratiya, huquq ustuvorligi, inson huquqlari hamda kamchiliklarning huquqlariga hurmat va ularni himoya qilishni kafolatlovchi institutlar barqarorligiga erishgan bo'lishini talab qiladi".<sup>6</sup> Amsterdam shartnomasi bilan amaldagi Shartnomaning "O" moddasiga o'zgartirish kiritildi va unda quyidagi konstitutsiyaviy tamoyil mustahkamlandi: "Ittifoq ozodlik, demokratiya, inson huquqlari va asosiy erkinliklarga hurmat hamda huquq ustuvorligi tamoyillariga asoslanadi". Shu nuqtayi nazardan, Turkiyaning ichki muammolari uning ushbu yangi tartibga "Yevropa tartiboti" kirishiga to'sqinlik qiluvchi yaqqol to'siqlarga aylandi.

Ming yillikning oxiriga kelib, Turkiya o'zining ichki siyosatida g'oyat murakkab va notinch davrlarni boshidan kechirmoqda. Mamlakatning ichki muammolari, birinchidan, harbiylarning siyosatda doimo mavjud bo'lgan roldan, ikkinchidan, radikalizmning kuchayishidan va uchinchidan, tizimli muammolardan kelib chiqmoqda. Turkiya jamoatchiligi demokratlashtirish jarayonini yanada jadallashtirishni talab qilmoqda va so'nggi o'n yillikda fuqarolik jamiyati harakatlari sezilarli darajada kuchaydi. Shunday qilib, Turkiya hukumati ham ichki, ham tashqi tomondan siyosiy islohotlar o'tkazishga majbur qilinmoqda

Turkiyani demokratlashtirish jarayonidagi asosiy to'siqlardan biri – birlashish, yig'ilish va so'z erkinligini cheklovchi 1982-yilgi Konstitutsiyadir. 1982-yilgi Konstitutsiyaning muammoli jihatlaridan biri bu siyosiy ishtirokni cheklovchi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonundir. Ushbu qonundagi muhim islohot 1987-yil sentyabr oyida referendum orqali qabul qilindi va u Yevropa Parlamenti (YEP) hisobotlaridagi

<sup>5</sup> Joanne Reedom-Ackerman, "New Hope in Turkey," Christian Science Monitor, November 18, 1999. – P. 9.

<sup>6</sup> Yevropa Ittifoqi Kengashining raislik xulosalari, Kopengagen, 1993-yil.

tavsiyalarga muvofiq, 1980-yilgacha bo'lgan siyosiy partiyalar, ularning yetakchilari va a'zolariga qo'yilgan cheklovlarni olib tashladi.

1990-yillardagi yana bir muhim burilish nuqtasi 1995-yil avgust oyidagi Konstitutsiyaviy o'zgartirish bilan yuz berdi; unda birlashish erkinligi ma'lum ma'noda yumshatildi.

Turkiya Konstitutsiyasi siyosiy partiyalarning sinfiy, diniy, etnik yoki separatistik asoslarga tayanishiga yo'l qo'ymaydi va shu jihatdan siyosiy ishtirokni cheklaydi. 1990-yillarda Konstitutsiyaviy sud uchta kurdparast partiyani – 1993-yilda Xalq mehnat partiyasi XMP (HEP), 1994-yilda Demokratiya partiyasi DP (DEP) (Demokratiya partiyasi) va 1999-yilda Demokratik ommaviy partiyani; shuningdek, bitta islomiy siyosiy partiya — 1998-yilda FP sini yopish haqida qaror chiqardi.

Faoliyati taqiqlangan Refah partiyasi a'zolari tomonidan tashkil etilgan yana bir islomiy yo'nalishdagi partiya FP partiyasi hozirda Konstitutsiyaviy sud tomonidan tergov qilinmoqda.<sup>7</sup> Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunni islooh qilish maqsadida, hukumat 1999-yil avgust oyida navbatdagi islohotni qabul qildi, bu esa Konstitutsiyaviy sud tomonidan siyosiy partiyalarni yopish jarayonini ancha qiyinlashtirdi.

Inson huquqlarining uzviy qismi bo'lgan so'z erkinligi nuqtayi nazaridan, muayyan konstitutsiyaviy muammolar mavjud; xususan, Terro'rga qarshi kurash to'g'risidagi qonunning 8-moddasi hamda Jinoyat kodeksining Turkiya davlatining hududiy yaxlitligi va asosiy tamoyillariga daxldor bo'lgan 158, 159, 311 va 312-moddalari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ushbu moddalarga zid bo'lgan har qanday xatti-harakat Davlat xavfsizlik sudlarida ko'rib chiqilardi, bu esa mustaqil sud jarayoni sifatida baholanmas edi.

Aynan shu sohalar islohotlarning asosiy nishoniga aylandi. Masalan, 1995-yilda hukumat Terro'rga qarshi kurash to'g'risidagi qonunning 8-moddasiga ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Demokratlashtirish yo'lidagi ushbu institutsional to'siqlarning aksariyati harbiylarning roli bilan bog'liqdir, shuning uchun Turkiya siyosatidagi harbiylarning rolini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Yevropa Ittifoqi nuqtayi nazaridan, Turkiya siyosatining asosiy muammolaridan biri – harbiylarning fuqarolik siyosatida hamma yerda hoziru nozir bo'lgan rolidir. O'zining “Kun tartibi – 2000” (Agenda 2000) hujjatida Yevropa Komissiyasi shunday ta'kidlagan: Boshqaruv va ta'lim tizimidagi so'nggi o'zgarishlar dunyoviylikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lsa-da, shunga qaramay, harbiylarning turk

<sup>7</sup> 1999-yilning may oyida Fazilat partiyasiga nisbatan uni tugatish bo'yicha sud ishi ochildi va sentyabr oyida partiya rasmiylari Konstitutsiyaviy sudga o'z himoya hujjatlarini taqdim etdilar. Boshqa tomondan, Konstitutsiyaviy sud 1999-yilda kurdparast yo'nalishdagi boshqa bir siyosiy kuch – Xalq demokratiyasi partiyasiga qarshi ochilgan tugatish haqidagi da'voni rad etdi.

jamiyatidagi o‘ziga xos rolini ko‘rsatib beradi. Turkiya huquqiy tizimida harbiylar ustidan fuqarolik siyosiy nazorati borasida noaniqliklar mavjud.

Komissiya armiya ustidan haqiqiy fuqarolik nazoratining yo‘qligini “anomaliya” me’yordan og‘ish deb hisoblaydi va “armiya ustidan fuqarolik nazoratining yetishmasligi xavotirga sabab bo‘layotganini” qayd etadi.<sup>8</sup> Bu holat armiyaning MXK orqali siyosiy hayotda o‘ynayotgan ulkan rolida o‘z aksini topadi.<sup>9</sup> Harbiylarning roli Turkiya siyosatiga ikkita institut orqali tarkibiy jihatdan singdirilgan: bular MXK va Davlat xavfsizlik sudlaridir.

MXK – 1961-yilgi Konstitutsiya bilan tashkil etilgan organdir. Uning tarkibiga Prezident, Bosh vazir, Ichki ishlar, Tashqi ishlar va Mudofaa vazirlari, Bosh shtab rahbari hamda armiyaning to‘rtta qo‘mondoni kiradi. Qarorlari rasman faqat “tavsiya” xarakteriga ega bo‘lgan MXK bilan bog‘liq asosiy muammo shundaki, u harbiylarni siyosiy ishlarga bevosita integratsiya qiladi.

Armiya va MXKning Turkiya siyosatidagi vazni qanchalik ekanligining yaqin o‘tmishdagi yaqqol namunasi – 1997-yil 28-fevraldagi qarorlardir; o‘shanda ikki markazchi-o‘ng partiyadan iborat hukmron koalitsiyadan ta’lim islohotini qabul qilish talab qilingan edi. Koalitsiyaning buni amalga oshira olmaganligi uning inqiroziga sabab bo‘lgan omillardan biri bo‘ldi. Bir qator siyosiy tahlilchilar 28-fevral qarorlari bilan boshlanib, 1997-yil iyun oyida koalitsiyaning iste’fosi bilan yakunlangan ushbu voqealar zanjirini “yumshoq to‘ntarish” deb ataganlar.

Harbiylarning roli seziladigan yana bir institut – Davlat xavfsizlik sudlaridir DXS (DGM). 1982-yilgi Konstitutsiyaning 143-moddasi bilan tashkil etilgan ushbu sudlar faqatgina separatizm, terrorizm va Respublika tuzumiga qarshi qaratilgan barcha faoliyatlar – ya’ni Jinoyat kodeksining Terrorga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonuni doirasidagi siyosiy jinoyatlar bilan shug‘ullanadi. Davlat xavfsizlik sudlari orqali harbiylarning Turkiya siyosatidagi roli sud tizimiga qadar kengaygan edi.

Davlat xavfsizlik sudlari uchta sudyadan iborat bo‘lib, ulardan biri harbiy sudyadir. Yevropa Ittifoqiga ko‘ra, harbiy sudyalarning xolisligiga jiddiy shubhalar mavjud edi. “Bu Yevropadagi fuqarolar hech bo‘lmaganda qisman harbiy sudya tomonidan sud qilinishi mumkin bo‘lgan yagona misoldir”.<sup>10</sup> 1998-yilda Yevropa Inson huquqlari sudi (YEIHS) Davlat xavfsizlik sudlarida harbiy sudyaning ishtiroki sababli Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi buzilishini e’lon qildi.

Turkiyaga qarshi ochilgan qator da’volarda YEIHS sudlanuvchilarning ishlari DXMlarda ko‘rilgani sababli, ularning mustaqil va xolis sudda ko‘rilish huquqi rad etilganini bildirdi. Masalan, faqat 1999-yil iyul oyining o‘zida Sud 1994-95-yillarda jismoniy shaxslar tomonidan kiritilgan 13 ta ish bo‘yicha qaror chiqardi; bu

<sup>8</sup> Commission Composite Paper on Enlargement, November 1998. – P. 19.

<sup>9</sup> Yevropa Komissiyasining Turkiya bo‘yicha taraqqiyot hisoboti, 1998-yil.

<sup>10</sup> The European Commission’s Progress Report on Turkey, 1998. – P. 13.

qarorlarning aksariyati ishlar DXMlarda ko‘rilgani, natijada sudlanuvchilar mustaqil sud huquqidan mahrum qilingani degan vajga asoslangan edi.<sup>11</sup>

Ushbu sohadagi islohotlar kurd terro‘ristik tashkiloti KIP yetakchisi O‘jalanning sudi bilan tezlashib ketdi, bunga YI va Yevropa Kengashi juda sezgir munosabatda bo‘ldi. “YI Turkiya hukumatining Abdulla O‘jalan adolatli sud qilinishi haqidagi kafolatini inobatga oladi. Bu huquq ustuvorligi asosida mustaqil sud oldida ochiq va to‘g‘ri muomalani anglatadi deb umid qiladi”.<sup>12</sup> Aynan YIning Davlat xavfsizlik sudlari borasidagi ushbu sezgirligi va e‘tirozlari 1999-yil 22-iyunda harbiy sudyani DXMlardan chiqarib tashlash haqidagi konstitutsiyaviy o‘zgartirishga olib keldi. Bu holat bevosita O‘jalan sudida o‘z aksini topdi – ertasi kuniyoq harbiy sudya o‘rnini fuqarolik sudyasi egalladi. Ushbu o‘zgartirishni qabul qilish orqali Turkiya hukumati hech bo‘lmaganda protsessual jihatdan o‘z sudlarining mustaqilligini himoya qila oldi.

Ushbu barcha xavotirlarni inson huquqlari degan umumiy sarlavha ostida birlashtirish mumkin, zero Yevropa Ittifoqi “barcha mamlakatlar, ayniqsa, Kopengagen mezonlariga daxldor bo‘lgan davlatlar tomonidan inson huquqlariga hurmat ko‘rsatilishiga alohida ahamiyat berishini” ta’kidlaydi.<sup>13</sup> Shunga qaramay, Turkiyaning siyosiy islohotlari va inson huquqlari sohasidagi ko‘rsatkichlarini yaxshilash jarayoni Turkiya davlati uchun ikki turdagi muammolarning kuchayishi natijasida cheklanib qolmoqda; bular – siyosiy islom va kurd separatizmidir.

XIX asrda boshlangan va 1923-yildan keyin Otaturk bilan yanada jadallashgan modernizatsiya jarayoni o‘zining aks ta’sirini ham keltirib chiqardi. Bugungi kunda ushbu aks ta’sirni islomiy kayfiyatning kuchayishi, konservativ siyosat va an’anaviy turmush tarzining tiklanishida kuzatish mumkin. Islomparast Farovonlik va Fazilat partiyalarining nufuzi ortgani Turkiyadagi o‘zlik inqirozining yaqqol ko‘rsatkichidir. Ushbu partiyaning asosiy jozibadorligi shundaki, u turk xalqiga umumiy taqdir va qadriyatlar tizimini taqdim eta olishini da’vo qiladi. Davlat hokimiyatining zaiflashuvi, an’anaviy turmush tarzining yemirilishi va “Yevropacha” yashash tarzining keng tarqalishi konservativ reaksiyon harakatning cho‘qqisiga chiqishiga sabab bo‘ldi va bu harakat o‘zining milliy ifodasini Islomda topdi. Turkiyada siyosiy islomning kuchayishi turk demokratiyasi oldiga ikkita muammoni qo‘yadi: bir tomondan, liberal demokratiya yo‘lida ularni asosiy siyosiy oqimga integratsiya qilish zarur; ikkinchi tomondan, siyosiy islom o‘zining avtoritar tabiati tufayli turk demokratiyasiga tahdid soladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmad, F. The Making of Modern Turkey. – London: Routledge, 1993. – 252 p.

<sup>11</sup> The European Commission’s Progress Report on Turkey, October 1999. – P. 9.

<sup>12</sup> Statement adopted on 22 February 1999, Bulletin of the European Union, January/February 1999, pt. 1.4.19.

<sup>13</sup> Bulletin of the European Union, September 1998, pt. 1.3.23.

2. Heper, M., & Sayari, S. Political Parties in Turkey. – London: Routledge, 2002. – P. 268.
3. Cizre-Sakallıoğlu, Ü. The Anatomy of the Turkish Military's Political Autonomy // Comparative Politics. – 1997. – Vol. 29, No. 2. – pp. 151-166.
4. Öniş, Z. The Political Economy of Islamic Resurgence in Turkey: The Rise of the Welfare Party in Perspective // Third World Quarterly. – 1997. – Vol. 18, No. 4. – pp. 743-766.
5. Öniş, Z. Türkiye ve Sovyet Sonrası Devletler: Bölgesel Güç Etkisinin Potansiyeli ve Sınırları // Avrasya Etüdüleri. – 2002. – Sayı 21. – S. 45–62.
6. Kirişçi, K. Türk Dış Politikasının Dönüşümü: Ticaret Devletinin Yükselişi // Akademik Orta Doğu. – 2009. – Cilt 4, Sayı 1. – S. 1–25.
7. Yıldız, N. Türkiye'de Demokrasi ve Siyasal Dönüşüm: 1980-2000. – İstanbul: Alfa Yayınları, 1998. – 340 s.
8. Azgın, B. Türk Demokrasi Tarihinde 1990'lar: Siyasal ve Sosyal Değişimler. – İzmir: Dokuz Eylül Üniversitesi Yayınları, 2001. – 285 s.
9. Ciplak, B. Türk Demokrasi Tarihi: 90'lı Yıllar ve Sonrası. – İzmir: Ege Üniversitesi Yayınları, 2005. – 312 s.